

**OTORINOLARINGOLOGIK KASALLIKLARNI ANIQLASHDA
SURXONDARYO VILOYATI KO'P TARMOQLI MARKAZIY
POLIKLINIKASIDA OLIB BORILAYOTGAN
ISHLARNING QIYOSIY TAHLILI**

Qurbonova S.T

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali

Fayzullayeva D.B

Termiz Davlat Universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada quloq, burun va tomoq kasalliklarini aniqlash va davolash, shuningdek oldini olish borasidagi nazariy ma'lumotlar hamda Termiz ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasida amalga oshirilayotgan shunga oid ishlarning qiyosiy tahlili to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Olib borilgan kuzatishlar natijalar tahlili asosida xulosalangan.

Kalit so'zlar: *Otorinoloringologiya, turmush tarzi, aholi, profilaktika, gaymorit, laringit, faringit, tonsillit, koxlyar nevrıt.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены теоретические сведения по выявлению и лечению заболеваний уха, горла и носа, а также профилактике, а также сведения по сравнительному анализу смежной работы, проводимой в многопрофильной центральной поликлинике г. Термеза. Сделанные наблюдения обобщаются на основе анализа результатов.

Ключевые слова: *оториноларингология, образ жизни, население, профилактика, синусит, ларингит, фарингит, тонзиллит, кохлеарный неврıt.*

ABSTRACT

This article presents theoretical information on the identification and treatment of ear, nose and throat diseases, as well as prevention, as well as information on the comparative analysis of related work carried out in the multidisciplinary central polyclinic of Termiz. The observations made are summarized based on the analysis of the results.

Key words: *Otorhinolaryngology, lifestyle, population, prevention, sinusitis, laryngitis, pharyngitis, tonsillitis, cochlear neuritis.*

Har bir inson umrida kamida bir bor burun, tomoq yoki quloq kasalliklari bilan kasallangandir. Quloq, burun, tomoq a'zolarini kasalliklarini otorinolaringolog shifokori tashxis qo'yib davolaydi. Otorinolaringologiya — bu quloq, tomoq, burun, halqum va hiqildoq kasalliklarini o'rganadigan fan (yunoncha otos — quloq, rhinos — burun, laryngos — hiqildoq va logos — ilm). LOR so'zi (L— laryngos, O—otos, R — rhinos) akademik V.I. Voyachek tomonidan tibbiy muomalaga taklif qilingan. Otorinolaringologiya XIX asming o'rtalaridan boshlab rivojlana boshlagan. Hozirgi vaqtda otorinolaringologiya o'zida ko'p sonli mikroxiirurgik operatsiyalarni, shuningdek, bosh va bo'yin o'smalarida xirurgik aralashuvlarni mujassamlashtirgan. Bu fandan audiologiya, vestibulologiya, surdologiya, foniatriya, LOR-onkologiya va otonevrologiya kabi yo'nalishlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan.[1]. Inson tanasidagi quloq va yuqori nafas yo'llari (burun, halqum, hiqildoq) nafas olish, hid bilish, ovqatlanish, nutq, eshitish, muvozanat kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, ular boshqa a'zolar va tizimlar bilan o'zaro bog'liqdir: yurak-qon tomir, asab, ovqat hazm qilish, mushak-skelet, immun, gemotopoetik va boshqalar. Bundan tashqari, burun, paranazal sinuslar, halqum va quloq anatomik va fiziologik jihatdan og'iz bo'shligi tizimi a'zolariga bog'liq.

Juda ko'p hollarda ko'plab kasalliklarni davolash otorinolaringolog va stomatologning birgalikdagi ishtirokini talab qiladi. Misol uchun: uzoq muddat davomida burun orqali nafas olish faoliyati buzilishi natijasida og'izdan majburiy nafas olish tish emalini zararlanishi va kariesini yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Bu holat og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining ortiqcha qurib ketishiga, ovqat qoldiqlaridan qiyin tozanishiga, tish emalining yetishmovchiligiga olib keladi. Burundan nafas olish qiyinligi stomatit va gingivitning rivojlanishiga ham sabab bo'ladi. Bundan tashqari, tish to'qimalari yoki periodontal soxadagi xastaliklar ko'pincha yuqori jag' bo'shlig'ida yallig'lanish jarayonlarini yuzaga keltiradi, bu o'z o'rnida bemorni davolashda stomatolog hamda otorinolaringologning ishtirokini talab qiladi [3].

Otorinolaringologiyada ham jarrohlik yo'nalishi mavjud. Otorinolaringolog ya'ni LOR shifokori quyidagi kasalliklarni davolaydi: neyrosensor karlik, og'ir quloqlik, otitlarni barcha ko'rinishi, laringit, faringit, rinit, burun devorini qiyshayishi, gaymoritlar, sinusitlar, tonsillitlar va boshqalar. Hech birimizga sir emaski, bunday kasalliklar mavsumiy xarakterga ega. Sababi, kuzatishlar va qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, aynan kuz-qish mavsumida bu kasalliklar bilan og'rikan bemorlar soni oshishi kuzatiladi. 2021-yil 25-maydagi muhtaram Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyevning tegishli qaroriga muvofiq sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish va aholi salomatligini saqlashga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar jumlasidan Termiz shahar ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasida LOR kasalliklarini oldini olish, tashxislash va

davolash bo'yicha olib borilayotgan ishlarning qiyosiy tahlili bo'yicha kuzatuvlar olib borildi. Quyida, shu bo'yicha tegishli ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020-yil 31-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi barcha davolash profilaktika muassasalarida yuritiladigan tibbiy hisob ishlarini takomillashtirish to'g'risida" gi № 363-sonli buyrug'i asosida nazorat jurnali tutilgan va kundalik bemorlar haqidagi ma'lumotlar kiritilib borilgan. Aynan shu jurnallardagi ma'lumotlar asosida biz 2022-yil uchun umumiy LOR kasalliklari bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni o'rgandik. Termiz shahar ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi otorinolarolog shifokori G. Allamuratovning yillik konyuktor hisoboti asosida LOR kasalliklari bilan og'riqan bemorlar sonining qiyosiy tahlilini amalga oshirdik. Aniqlangan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

LOR kasalliklari bilan og'riqan bemorlar sonining 2021-2022-yillar bo'yicha aniqlangan solishtirma hisoboti:

№	Kasallik nomlari:	2021-yil	2022-yil
1.	Koxlear nevrit	16	16
2.	Surunkali tonzillit	15	17
3.	Surunkali otit	22	25
4.	Tug'ma yumshoq tanglay kemtikligi	2	2
5.	Var	30	40
6.	Surunkali gaymorit	9	12
7.	Surunkali faringit, laringit	2	10
8.	Onkologik kasalliklar	3	3
9.	Duduqlanish	-	-
10.	Quloq supراسi va eshituv yo'li anomaliyasi	-	-
11.	Tug'ma kar, gunglik	40	40
12.	Neyrosensor karlik, gunglik	5	13
13.	Tanglay murtak bezlar gipertrofiyasi	2	2
14.	Jami:	146	180

2022-yil davomida jami 217 nafar LOR kasalliklari bilan og'riqan bemorlar "D" nazoratiga olingan, ular bilan tegishli profilaktika va davolash ishlari o'tkazilgan. Jami 58 nafar bemorda nogironlik aniqlangan. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, bemorlar orasida uchraydigan LOR kasalliklari asosan

yallig'lanish kasalliklari va shuni e'tiborga olib, biz quyida ba'zi muhim kasalliklar bo'yicha ma'lumotlar keltirishga harakat qildik.

LOR a'zolarining kasalliklari rivojlanishining dastlabki bosqichida davolanishi kerak, chunki bu patologiyalar surunkali bosqichga o'tgandan so'ng, davolash ancha murakkab va uzoq davom etadi, ko'pincha ko'p yillar davom etadi. Bolalikda davolanmagan kasalliklar bolaning rivojlanishida kechikishga olib kelishi mumkin. Bolalar immunitet tizimining nomukammalligi tufayli ularga tez-tez duchor bo'lishadi.

Burun kasalliklari: o'tkir va surunkali bosqichlarda burun oqishi yoki rinit; sinusit (sinusit, frontal sinusit, etmoidit, sfenoidit); allergik rinit; adenoidit; burun bo'shlig'idagi begona jism; burundan qon ketish va boshqalar. Patologik jarayon burun shilliq qavati va paranasal sinuslarga ta'sir qiladi. Burunning ayrim surunkali kasalliklari (masalan, sinusit va frontal sinusit) og'ir migren, ko'rishning xiralashishi va meningit rivojlanishi shaklida jiddiy asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Quloq kasalliklari: ichki, tashqi va o'rtacha otit; eustaxit; oltingugurt vilkasi; quloq kanalidagi begona jism; ichki quloq va quloq pardasining shikastlanishi va boshqalar. Quloq patologiyalarining klinik ko'rinishi deyarli barcha holatlarda eshitish qobiliyatini yo'qotish fonida yuzaga keladi. Yallig'lanish jarayonlari odatda isitma, tananing intoksikatsiyasi belgilari, oqindi va quloqdagi o'tkir og'riqlar bilan birga keladi. Voyaga yetgan bemorlarda quloq kasalliklarining belgilari ko'pincha loyqa va yengildir, shuning uchun patologiyani aniqlash qiyinroq va katta kechikish bilan. Patologik jarayonning belgilari uzoq vaqt davomida o'zini his qilmasligi mumkin.

Tomoq kasalliklari: angina; faringit; laringit; difteriya; farenksning shilliq qavatining kuyishi; tomoqdagi begona jismlar. Tomoq og'rig'i isitma bilan yoki isitmasiz paydo bo'lishi mumkin. Eng keng tarqalgan LOR kasalligi o'tkir va surunkali bosqichlarda tonzillit hisoblanadi [2].

O'tkir tonzillit (ko'proq so'zlashuvda „Angina“ (lot. angina — bo'g'ilish)) — tanglay murtak bezlarining yallig'lanishi bilan kechadigan o'tkir infeksiyon kasallik; ko'proq streptokokk, stafilokokk va boshqa mikroblar qo'zg'atadi. Ular halqumga aksari o'tkir tonzillit bo'lgan bemor foydalangan uy-ro'zg'or buyumlari (masalan, yuvilmagan idish-tovoq va boshqalar) dan tushadi. Ko'pincha halqumda bo'ladigan va odatda kasallik qo'zg'atmaydigan mikroblar ayrim noxush omillar ta'sirida, masalan, kishi sovuqotganda yoki harorat o'zgarganda kasallik qo'zg'atishi mumkin. Halqumga muntazam tushib turadigan tutun, chang, spirtli ichimliklar, shuningdek burun orqali nafas olishni qiyinlashtiradigan adenoidlar va burun-halqumning boshqa kasalliklari o'tkir tonzillitga sabab bo'lishi mumkin. Burun va yondosh bo'shliqlarining yallig'lanishi (masalan, gaymorit), shuningdek og'iz bo'shlig'idagi yiringli yallig'lanishlar (chirigan tishlar) ham o'tkir tonzillitga sabab bo'ladi. Kasallik

to'satdan boshlanadi. Bemorda madorsizlik, bosh og'rig'i, tomoq qaqrab og'rishi, achishishi, yutinganda og'riq kuzatiladi. Harorat ko'tariladi (38-41°); murtak bezlari qizarib, ular yuzasida yiringli karash paydo bo'ladi. O'tkir tonzillit bilan tez-tez og'rish natijasida murtak bezlari surunkali yallig'lanadigan bo'lib qoladi. O'tkir tonzillitning kataral, follikulyar, yiringli va boshqa xillari farq qilinadi. Mahalliy (peritonzillyar abscess, o'rta quloqning o'tkir yallig'lanishi) va umumiy (bo'g'imlar, yurak, buyrakning zararlanishi) asoratlar qoldirishi mumkin. Vrach ko'rsatmalarini beka mu ko'st bajarish tez sog'ayib ketishga imkon beradi va asoratlar avj olishiga yo'l qo'ymaydi. LOR a'zolari kasalliklarini davolashda eng muhimi yaxshi LOR shifokorni topish zarur. Shifokor davolashda dori-darmonlardan tashqari har-xil fizioterapevtik davo usullaridan foydalanadi.

Xulosa. LOR huzuriga borish uchun kasal bo'lish shart emas. Odam o'z sog'ligini kasalliklardan saqlash uchun yilda ikki marotaba LOR ko'rigidan o'tishlari tavsiya etiladi. Ayniqsa sovuq yeyishni hush ko'radiganlar va yaxna ichimliklarni ichishga odatlanganlar doimiy ravishda LOR shifokori ko'rigidan o'tib turishlari lozim. Yuqorida keltirilgan kasalliklar misolida ko'rsatilganidek, yurak va bo'g'imlar salomatligi og'iz bo'shlig'i, burun va quloqlarni salomatligiga chambarchas bog'liq. Shuning uchun quloq, burun, tomoq sohalari salomat holida saqlash juda muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xo'jayeva Q, *Amaliy otorinolaringologiya*. Toshkent 2006, 5-b.

2. Yunusova N.A, *Lor a'zolarining kasalliklari. Ularning sabablari va belgilari. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from New York, USA*
<https://conferencea.org/Sep.28th2022,210-213b>.

3. Maxkamova N.E. *Otorinolaringologiya. Toshkent – 2020, 7-8b.*

4. www.lex.uz

5. www.ziyo.net